

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:

IQTISODIY SIYOSAT

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

Ta'lif sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga oid fanlar

Ta'lif yo'nalishi: 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Guliston-2023

Fan/modul ECOPOL 6	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 6/6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta‘lim tili O‘zbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 6/6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta‘lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiy siyosat	72/72	108/108	180/180

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriylarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

II. O‘ quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning vazifasi - munozaralar, fikrlar va tahlillarning asosiy metodologik xarakteristikasini o‘rgatish, ushbu fikrlarda siyosatning shakllanishida asosiy e’tibor institutsional-tashkiliy omillarga, hamda siyosiy omillarga bog‘liqligini, ular doimo jamoaviy qaror qabul qilish munosabatini shakllantirish orqali iqtisodiy muammolarni yechish yo‘llarini topa olish qobiliyatini shakllantirish.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- iqtisodiy siyosatning asosiy tushunchalarini interpritatsiya qila olishi va bilish;
- maqsadlar, vositalar, siyosiy jarayon, iqtisodiy siyosatni baholash;
- sohaviy va instrumental siyosat, ilmiy-tadqiqot siyosati;
- iqtisodiy dinamikani, texnologik o‘zgarishlarni va ilmiy-tadqiqot siyosatining o‘rnini tushunishi;
- mintaqaviy va mahalliy siyosat, siyosiy rivojlanish uchun hamkorlik, kompaniyalarning mintaqaviy va ijtimoiy hamkorligini o‘rgatish.

“Iqtisodiy siyosat” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- ijtimoiy iqtisodiy modellasshtirish va prognozlashning fanining mazmuni, predmeti, uning milliy iqtisodiyotni rivojlanishidagi o‘rni;
- modellasshtirish va prognozlash metodlari;
- prognozlash maqsadi va vazifalari ;
- iqtisodiyot sektoridagi tarmoq va sohalar faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy hamda nazariy asoslarini;
- iqtisodiyotining makro darajadagi holati vaunu modellar asosida prognozlash;
- iqtisodiyot sektorlarining prognozlash qonuniyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi lozim;**
- ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini, iqtisodiy vaziyatini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini tahlildan o‘tkazish usullari va vositalari haqida bilim olishlari;

II. Asosiy nazariy qism (Ma’ruza)

2.1.Ma’ruza mavzulari va ko‘riladigan masalalar

1-mavzu. Iqtisodiyot, bozor va iqtisdiy siyosat

Iqtisodiyot va bozor. Bozordagi muvaffaqqiyatsizliklar va hukumat organlarining roli. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Iqtisodiy sohani boshqarish va tartibga solishning ma’muriy va iqtisodiy usullari va

vositalari. Iqtisodiy siyosatning tipologiyasi va konsepsiyasi. Iqtisodiy siyosatga aralashuv masshtabi. Siyosiy va iqtisodiy strategiya. Iqtisodiy siyosat turlarining klassifikatsiyasi.

2-mavzu. Iqtisodiy siyosat asoslari va tarkibi

Iqtisodiy siyosat jarayonini ishlab chiqishning logistik jarayonida maqsadlar/vositalar sxemasi. Maqsadlar/vositalar sxemasi. Ijtimoiy muammolarni va kunning siyosiy yangiliklarini aniqlash. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish va baholash. Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o'rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari konsepsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo'yicha Keyns konsepsiyasining asosiy mazmuni. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarish davlatning roli haqida zamonaviy nazariya.

3-mavzu. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar

Formal va noformal institutlar hamda iqtisodiy siyosat sohasidagi yechimlar. Demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi cheklovlar. Iqtisodiy siyosat, vositalar va boshqaruv nazariysi.

Saylovchilar, siyosiy partiylar va taklif etilayotgan dasturlar. Parlament va institutsional qayta qurish. Hukumat va siyosiy-iqtisodiy siklning o'rni. Konsultantlar, aktivistlar va tarafdarlar: axborot va siyosiy e'tiqod.

4-mavzu. Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasи

Davlat mulki va tadbirkorligi. Iqtisodiy siyosatda davlat mulkining o'rni va ahamiyati masalasi. Davlat mulkining bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan taribga solishdagi o'rni va ahamiyati. Iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarining o'zaro aloqadorligi hamda ta'siri. Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati. Davlat tomonidan xususiy biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish mexanizmi. Davlatning mulkchilik munosabatlarini tartibga solish siyosati. Davlat mulkining xususiy sektor rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati.

5- mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejelashtirish

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o'rni. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o'rta muddatli prognozlar. Ilmiy prognozlashtirishning prinsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari. Dasturlash va rejelashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funksiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejelashtirish nazariyasining asoslari. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejelashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.

6- mavzu. Davlatning iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati.

Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo'naliishlari. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari. Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tug'dirib berilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi prinsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferensiyalar.

7- mavzu. Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.

Raqobatning kategoriyasining mohiyati va shakllari. Raqobatlashish usullari. Raqobatning vazifalari va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati. Raqobatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. Davlatning raqobat siyosati.

8-mavzu. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.

Mintaqaviy markazlashtirishdan chiqish, integratsiya va millat ustidan iqtisodiy siyosat yuritishi. Boshqaruv hukumati o‘rtasida majburiyatlarni samarali taqsimlash va ularning oqibatlari. Mintaqalarning moliyaviy va iqtisodiy siyosati. Milliy va millat ustidan iqtisodiy siyosat yuritishning koordinatsiyasi va boshqaruvi. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari.

9-mavzu. Yuksalish, rivojlanish va iqtisodiy siyosat

Rivojlanishga nisbatan iqtisodiy o‘shish: turmush sifati va ekologik cheklovlari. Kapitalizmning bumlari, shishishlar va inqiroz. Siyosiy yuksalish, globalizatsiya va ofshoring. Mustahkam rivojlanish va ekologik siyosat. Makroiqtisodiy muvozanat va uning bozor iqtisodiyotida namoyon bo‘lish shakllari. Davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati. Iqtisodiy sikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari. Iqtisodiy inqirozlarning turlari. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari.

10-mavzu. Daromadlarni qayta taqsimlash, boylik va iqtisodiy siyosat.

Adolat prinsiplari va qayta taqsimlash siyosatining asoslari. Umumdavlat sharoiti evolyusiyasi va manbalari. Kambag‘allik ko‘rsatkichlari va tengsizlik. Iqtisodiy siyosatda qayta taqsimlashning asosiy choralar. Davlat budgeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muhim shakli sifatida. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat budgeti va YalM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichi sifatida. Davlatning budget siyosati. Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida davlat budgeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko‘rsatkichi sifatida. Davlat budgeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Davlatning pul muomalasini tartibga solishi. Pul emissiyasi va uni nazorat qilish. Davlatning monetar siyosati va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati.

11-mavzu. Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.

Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli. Ijtimoiy (sotsial) siyosat tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va ulushi. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o‘stirish. Kuchli ijtimoiy siyosat mexanizmining va kam ta’minlangan aholini ijtimoiy himoyalash tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Davlatning ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi siyosatining maqsadlari va ularni amalga oshirishning yo‘nalishlari.

12-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash vazifalari.

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta’minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlari indikatorlari. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadlari vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari. Ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda erishilgan

natijalar istiqbol yo‘nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsiz-likni ta’minlash masalalari.

13-mavzu. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish siyosati.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va ularni tartibga solish prinsiplari. Ilmiy asosga ega bo‘lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uning tarkibiy qismlari. Davlatning tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati. Import siyosati. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari. Bojxona ishi. Boj to‘lovlari. Demping va antidemping, eksport va import tovar oqimlarini kvotalash. Litsenziyalash. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari. Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo‘llari. Mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini ta’minlashda davlatning roli va vazifalari. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini takomillashtirish yo‘llari.

III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1.Iqtisodiyot, bozor va iqtisodiy siyosat
- 2.Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar
- 3.Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar
- 4.Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar
- 5.Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasи
- 6.Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish
- 7.Davlatning iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati.
- 8.Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.
- 9.Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.
- 10.Yuksalish, rivojlanish va iqtisodiy siyosat
- 11.Yuksalish, rivojlanish va iqtisodiy siyosat
- 12.Daromadlarni qayta taqsimlash, boylik va iqtisodiy siyosat.
- 13.Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.
- 14.Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash vazifalari.
- 15.Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish siyosati.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

- 1.Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar
- 2.Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar
- 3.Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar
- 4.Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasи
- 5.Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish
- 6.Davlatning iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati.
- 7.Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.
- 8.Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.
- 9.Yuksalish, rivojlanish va iqtisodiy siyosat
- 10.Yuksalish, rivojlanish va iqtisodiy siyosat
- 11.Daromadlarni qayta taqsimlash, boylik va iqtisodiy siyosat.
- 12.Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.
- 13.Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash vazifalari.

V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznesning tutgan o‘rni, hozirgi holati, tarmog‘ini rivojlantirish qonuniyatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;
- tarmoq faoliyatini tartibga soladigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini, iqtisodiyotining asosiy tushunchalari mohiyatini, kategoriya va iqtisodiy holatga baho berish me‘zonlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

talaba ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi muammolarni yuzaga chiqarish va hal etish, tarmoqning iqtisodiy holatni tahlil etish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

4. FANNI O‘QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANGAN KASBIY KOMPETENTSIYALAR:

3.1. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari, bosqichlari, o‘zgarish sabablari va oqibatlari; hozirgi zamон bozor iqtisodiyotining xususiyatlari; iqtisodiy qonunlar va kategoriylar to‘g‘risida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;

iqtisodiyot asoslarini; milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini bilgan holda samarali qo‘llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarning) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilgan holda iqtisodiy muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilishmalakasiga ega bo‘lishi kerak.

-mikro va makro jarayonlarni tadqiq qilishda ekonometrik va tizimli tahlillarni qo‘llash;

-murakkab iqtisodiy obyektlarni va ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni modellashtirishda o‘zgaruvchi tarkibli va stoxastik o‘zgaruvchilarni regressiya modellarini, statsionar va nostatsionar qatorlarni, bir vaqtli tenglamalar tizimlari xususiyatlarini ifodalash va modellashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

5. TALABANING KREDITLARNI TO‘PLASH TARTIBI:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriplarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

T/r	Asosiy adabiyotlar
1	Bod, Peter. (2019). Economic Policy Making. An Introduction to Comparative Analysis.
2	Acocella, Nicola & Di Bartolomeo, Giovanni & Hallett, Andrew. (2011). The theory of economic policy: from a theory of control to a theory of conflict (resolutions).
3	Petrosyan D.S., Bezpalov V.V. Ekonomicheskaya politika gosudarstva. Sotsialnaya spravedlivost v ekonomicheskix otnosheniyx. Uchebnoe posobie. Moskva: Infra-M, 2016.
4	Tupchienko, V. A. Gosudarstvennaya ekonomicheskaya politika: uchebnoe posobie / V. A. Tupchienko. – Moskva: Yuniti, 2015. – 663 s.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1	Abulkasimov H., Topildiyev S. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.- T.: “Iqtisod-moliya”, 2021.
2	Xajiev B.D., Mambetjanov K.K.. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 552. str.

3	Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Barkamol fayz-media, 2017. – 783 bet.
4	Abulkasimov H., Topildiyev S. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.- T.: “Iqtisod-moliya”, 2021.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
4. www.sbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
5. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.
6. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
7. www.norma.uz - O‘zbekiston Respublikasi huquqiy axborot bazasi.

O‘quv dasturi Guliston davlat universiteti tamonidan ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: S.Mamajonova – «Iqtisodiyot» kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: X. Asatullaev — Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot» kafedrasi i mudiri, professor (turdosh OTM)

Z. Nuriddinov – Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, PhD